Qabul qilindi: 14-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 16-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 18-noyabr 2026-yil

XALQARO TIJORAT ARBITRAJIDA SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING HUQUQIY MUAMMOLARI HAMDA ULARNI TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Ro‘ziqulova Umida Abduqayum qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura bosqichi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro tijorat arbitraji jarayonida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy-huquqiy asoslari, protsessual imkoniyatlari hamda ular bilan bog‘liq huquqiy muammolar kompleks tahlil qilinadi. Xususan, onlayn arbitraj, sun’iy intellekt yordamidagi arbitraj va to‘liq avtomatlashtirilgan arbitraj tushunchalarining o‘zaro farqlari, elektron dalillarning ishonchliligi, algoritmik qaror qabul qilishning huquqiy chegaralari, taraflarning protsessual tengligi va arbitraj qarorlarining ijro etilishi masalalari o‘rganiladi. Tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasining “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi Qonuni, 1958-yilgi Nyu-York konvensiyasi, Yevropa Ittifoqining Sun’iy intellekt to‘g‘risidagi reglamenti hamda xalqaro arbitraj tashkilotlarining tavsiyaviy hujjatlari qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil etiladi. Maqolada sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishga nisbatan xavfga asoslangan uch bosqichli yondashuvni joriy etish, elektron dalillarni tekshirishning yagona protsessual mezonlarini ishlab chiqish va arbitraj muassasalari reglamentlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: xalqaro tijorat arbitraji, sun’iy intellekt, raqamli arbitraj, onlayn nizolarni hal etish, elektron dalillar, AI-arbitr, protsessual adolat, algoritmik shaffoflik, Nyu-York konvensiyasi.

Аннотация. В статье исследуются теоретико-правовые основы, процессуальные возможности и правовые проблемы использования искусственного интеллекта и цифровых технологий в международном коммерческом арбитраже. Особое внимание

уделяется разграничению онлайн-арбитража, арбитража с использованием искусственного интеллекта и полностью автоматизированного арбитража, достоверности электронных доказательств, пределам алгоритмического принятия решений, процессуальному равенству сторон и исполнению арбитражных решений. На основе сравнительно-правового анализа законодательства Республики Узбекистан, Нью-Йоркской конвенции 1958 года, Регламента Европейского союза об искусственном интеллекте и международных рекомендаций предлагаются меры по совершенствованию правового регулирования использования искусственного интеллекта в арбитраже.

Ключевые слова: международный коммерческий арбитраж, искусственный интеллект, цифровой арбитраж, электронные доказательства, онлайн-разрешение споров, процессуальные гарантии, исполнение арбитражных решений.

Abstract. This article examines the theoretical and legal foundations, procedural opportunities, and challenges associated with the use of artificial intelligence and digital technologies in international commercial arbitration. Particular attention is paid to the distinction between online arbitration, AI-assisted arbitration, and fully automated arbitration, as well as the reliability of electronic evidence, the limits of algorithmic decision-making, procedural equality, and the recognition and enforcement of arbitral awards. Drawing on a comparative legal analysis of Uzbekistan’s legislation, the 1958 New York Convention, the European Union Artificial Intelligence Act, and international soft-law instruments, the article proposes a risk-based approach to AI use, procedural standards for electronic evidence, and improvements to institutional arbitration rules.

Keywords: international commercial arbitration, artificial intelligence, digital arbitration, electronic evidence, online dispute resolution, procedural fairness, algorithmic transparency, enforcement of arbitral awards.

KIRISH

Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi va raqamli texnologiyalarning jadal sur’atlarda takomillashuvi nizolarni hal etish mexanizmlarini ham yangi bosqichga olib chiqmoqda. Elektron tijorat, transchegaraviy shartnomalar, raqamli

aktivlar va avtomatlashtirilgan savdo munosabatlarining kengayishi natijasida xalqaro tijorat arbitrajining an’anaviy protsessual shakllarini qayta ko‘rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi arbitraj jarayonida hujjatlarni avtomatik tahlil qilish, dalillarni tizimlashtirish, huquqiy ma’lumotlarni izlash, matnlarni tarjima qilish hamda arbitraj qarorlari loyihalarini tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Ethan Katsh va Orna Rabinovich-Einy o‘zlarining Digital Justice: Technology and the Internet of Disputes nomli tadqiqotida raqamli texnologiyalar nizolarni hal etishning faqat texnik vositasi bo‘lib qolmasdan, adolatga erishishning tashkiliy va protsessual mexanizmlarini ham o‘zgartirishini tahlil qilganlar [1].

Biroq arbitraj jarayoniga sun’iy intellektning joriy etilishi bir qator fundamental huquqiy savollarni keltirib chiqaradi. Jumladan, sun’iy intellekt mustaqil arbitr sifatida faoliyat yuritishi mumkinmi? Algoritm yordamida shakllantirilgan qaror uchun kim javobgar bo‘ladi? Sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan yoki o‘zgartirilgan elektron dalillarning ishonchliligi qanday aniqlanadi? Bunday texnologiyalar ishtirokida chiqarilgan arbitraj qarorlari boshqa davlatlarda tan olinishi va ijro etilishi mumkinmi?

Mazkur masalalar O‘zbekiston uchun ham dolzarbdir. Chunki mamlakatda xalqaro tijorat arbitrajining huquqiy asoslari shakllantirilgan bo‘lsa-da, sun’iy intellekt vositalaridan arbitraj jarayonida foydalanishning maxsus protsessual chegaralari batafsil tartibga solinmagan.

Shu munosabat bilan tadqiqotning asosiy maqsadi xalqaro tijorat arbitrajida sun’iy intellektdan foydalanish bilan bog‘liq huquqiy muammolarni aniqlash, xalqaro tajribani qiyosiy o‘rganish hamda O‘zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil, huquqiy modellashtirish va funksional yondashuv metodlaridan foydalanildi.

Formal-yuridik metod orqali O‘zbekiston Respublikasining “Xalqaro tijorat arbitraji

to‘g‘risida”gi Qonuni va xalqaro shartnomalarning tegishli normalari tahlil qilindi.

Qiyosiy-huquqiy metod asosida Yevropa Ittifoqining sun’iy intellektga oid tartibga solish modeli hamda xalqaro arbitraj tashkilotlarining tavsiyaviy standartlari o‘zaro taqqoslandi.

Tizimli tahlil yordamida sun’iy intellektdan foydalanishning arbitraj jarayonidagi protsessual tenglik, arbitrning mustaqilligi, dalillarni baholash va arbitraj qarorlarining ijro etilishiga ta’siri o‘rganildi.

Huquqiy modellashtirish asosida sun’iy intellektdan foydalanishning xavf darajasiga mutanosib tartibga solish mexanizmi va elektron dalillarni tekshirish mezonlari ishlab chiqildi.

Tadqiqot normativ-huquqiy va doktrinal tahlil xarakteriga ega bo‘lib, unda mustaqil empirik so‘rov yoki statistik tajriba natijalari mavjud deb da’vo qilinmaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

I. Xalqaro tijorat arbitrajida sun’iy intellektdan foydalanishning huquqiy tabiati

Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning arbitrajga joriy etilishi bilan bog‘liq dastlabki muammolardan biri ularning huquqiy maqomini aniq belgilash hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda onlayn arbitraj va sun’iy intellektga asoslangan arbitraj tushunchalari ayrim hollarda bir-biriga yaqin ma’noda qo‘llanilsa-da, ular mazmunan farqlanadi.

Gabrielle Kaufmann-Kohler va Thomas Schultzning fikrlarini umumlashtirganda, onlayn nizolarni hal etish mexanizmlarining asosiy xususiyati axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida nizoni ko‘rib chiqish jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq ekani namoyon bo‘ladi [2].

Shundan kelib chiqib, arbitrajda raqamli texnologiyalardan foydalanishning uchta asosiy modelini farqlash maqsadga muvofiq.

Birinchi model — onlayn arbitraj. Ushbu modelda arbitraj jarayonining barcha yoki ayrim bosqichlari elektron aloqa vositalari orqali amalga oshiriladi. Masalan, taraflar hujjatlarni elektron shaklda yuboradi, tinglovlar videokonferensiya orqali tashkil etiladi va protsessual yozishmalar raqamli platformalarda olib boriladi. Biroq nizoning mohiyati

yuzasidan qaror qabul qilish vakolati inson arbitrda saqlanib qoladi.

Ikkinchi model — sun’iy intellekt yordamidagi arbitraj. Mazkur modelda sun’iy intellekt arbitrning yordamchi vositasi sifatida faoliyat yuritadi. U katta hajmdagi hujjatlarni tahlil qilishi, ishga aloqador ma’lumotlarni aniqlashi yoki huquqiy xulosalar loyihasini tayyorlashi mumkin. Ammo yakuniy qaror arbitrning mustaqil huquqiy baholashiga asoslanishi lozim.

Uchinchi model — to‘liq avtomatlashtirilgan arbitraj. Ushbu modelda nizoning mohiyati bo‘yicha yakuniy qaror algoritmik tizim tomonidan mustaqil chiqariladi.

Maxi Scherer sun’iy intellekt va huquqiy qaror qabul qilish masalasini tahlil qilib, texnologik imkoniyat mavjudligining o‘zi bunday faoliyatning huquqiy jihatdan maqbulligini anglatmasligiga e’tibor qaratadi [3].

Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, sun’iy intellektning arbitraj jarayonidagi ishtirokini uning texnik imkoniyatlari emas, balki protsessual vazifasi va qaror qabul qilishdagi mustaqillik darajasiga qarab baholash zarur.

II. Sun’iy intellektning arbitr sifatidagi huquqiy maqomi

Sun’iy intellektdan xalqaro tijorat arbitrajida foydalanishning eng munozarali masalalaridan biri uning mustaqil arbitr sifatida faoliyat yuritish imkoniyatidir.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-fevraldagi O‘RQ-674-son “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi Qonunining 5-moddasida arbitr jismoniy shaxs sifatida belgilangan [4].

Mazkur normaning mazmunidan kelib chiqib, sun’iy intellekt tizimini amaldagi qonunchilik doirasida mustaqil arbitr sifatida tayinlash uchun huquqiy asos mavjud emas.

Bu yerda muammo faqat sun’iy intellektning huquqiy subyekt emasligi bilan cheklanmaydi. Arbitrning shaxsiy mustaqilligi, xolisligi, javobgarligi va qarorni shakllantirishdagi intellektual faoliyati arbitraj protsessining asosiy elementlari hisoblanadi.

Masalan, taraflardan biri arbitrning xolisligiga shubha bildirgan taqdirda, uning manfaatlar to‘qnashuvi yoki taraflar bilan aloqadorligi huquqiy tartibda tekshirilishi mumkin. Sun’iy intellekt tizimining algoritmik tuzilishi, o‘qitilgan ma’lumotlari va qaror chiqarish mexanizmi esa boshqa turdagi tekshiruvni talab qiladi.

Gizem Halis Kasap sun’iy intellekt inson arbitrining o‘rnini bosishi masalasini tahlil qilib, texnologiyaning rivojlanishi bilan arbitrajning huquqiy va etik talablarini bir-biridan ajratish zarurligini ko‘rsatadi [5].

Shu sababli sun’iy intellektning arbitr sifatidagi maqomini belgilashda quyidagi masalalar hal qilinishi talab etiladi: qaror uchun javobgarlik, algoritmik xolislik, taraflarning roziligi, natijani tekshirish imkoniyati va qarorni bekor qilish mexanizmlari.

Mening fikrimcha, O‘zbekiston uchun hozirgi bosqichda sun’iy intellektni mustaqil arbitr sifatida tan olishdan ko‘ra, uni inson arbitrining faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi yordamchi vosita sifatida huquqiy tartibga solish maqsadga muvofiqdir.

III. Elektron dalillarning ishonchliligi va ularni baholash muamolari

Raqamli arbitrajning rivojlanishi natijasida elektron dalillarning roli tobora ortmoqda. Elektron pochta yozishmalari, raqamli shartnomalar, videoyozuvlar, elektron to‘lov ma’lumotlari va server jurnallari arbitraj jarayonida muhim isbotlash vositalari sifatida foydalanilishi mumkin.

Biroq sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi elektron dalillarning haqiqiyligini tekshirishni murakkablashtirmoqda.

Xususan, generativ sun’iy intellekt yordamida haqiqiy yozishmalarga o‘xshash matnlar, sun’iy ovoz yozuvlari va videotasvirlar yaratish imkoniyati mavjud. Bu esa elektron dalillarni soxtalashtirish va arbitrajni noto‘g‘ri ma’lumotlar asosida qaror qabul qilishga yo‘naltirish xavfini kuchaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasining “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi Qonunining 34-moddasiga muvofiq, taraflar kelishuvi va qonun talablariga rioya etilgan holda arbitraj protsessining tartibi belgilanadi, shuningdek, arbitraj sudi dalillarning maqbulligi, aloqadorligi, muhimligi va ahamiyatini aniqlash vakolatiga ega [4].

Biroq mazkur umumiy protsessual vakolat elektron dalillarni texnik tekshirishning batafsil standartlarini o‘z-o‘zidan belgilab bermaydi.

Shu nuqtayi nazardan, elektron dalillarni baholashda beshta asosiy mezondan foydalanish taklif etiladi.

Birinchisi — kelib chiqish manbasi. Elektron dalil qaysi qurilma, axborot tizimi yoki

shaxs tomonidan yaratilgani aniqlanishi kerak.

Ikkinchisi — ma’lumotlarning yaxlitligi. Elektron hujjat dastlab yaratilganidan keyin o‘zgartirilgan yoki o‘zgartirilmaganini tekshirish imkoniyati mavjud bo‘lishi zarur.

Uchinchisi — autentifikatsiya. Dalilning ko‘rsatilgan shaxs, elektron tizim yoki voqea bilan haqiqiy bog‘liqligi aniqlanishi lozim.

To‘rtinchisi — saqlash zanjiri. Elektron dalil olingan paytdan arbitrajga taqdim etilgunga qadar qanday saqlangani va kimlar tomonidan foydalanilgani hujjatlashtirilishi maqsadga muvofiq.

Beshinchisi — qarshi tekshiruv imkoniyati. Har bir taraf boshqa taraf taqdim etgan elektron dalilning haqiqiyligi va ishonchliligiga e’tiroz bildirish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Mazkur mezonlar birgalikda qo‘llanilgan taqdirda elektron dalillarni baholashning shaffofligi oshadi.

Bunda xesh qiymati ma’lum bir faylning o‘zgarmaganligini tekshirish vositasi bo‘lishi mumkin, biroq uning mavjudligi hujjatdagi ma’lumotlar haqiqatga mos ekanligini avtomatik ravishda isbotlamaydi.

Demak, elektron dalillarning huquqiy maqbulligi bilan ularning texnik ishonchliligini farqlash zarur.

IV. Xalqaro tajribada sun’iy intellektdan foydalanishni tartibga solish

Xalqaro arbitraj amaliyotida sun’iy intellektdan foydalanishga oid yagona majburiy universal tartib shakllanmagan. Shunga qaramay, xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyaviy hujjatlar muayyan protsessual standartlarning rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Jumladan, Silicon Valley Arbitration & Mediation Center tomonidan 2024-yilda qabul qilingan Guidelines on the Use of Artificial Intelligence in Arbitration hujjati arbitraj ishtirokchilarining sun’iy intellektdan mas’uliyatli foydalanishiga qaratilgan [6].

Mazkur ko‘rsatmalarning muhim jihatlaridan biri arbitr o‘zining qaror qabul qilish majburiyatini sun’iy intellekt tizimiga topshirmasligi kerakligi bilan bog‘liq.

Bundan tashqari, 2025-yilda Chartered Institute of Arbitrators tomonidan ishlab

chiqilgan sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha qo‘llanmada protsessual adolat, inson nazorati, xavflarni baholash va arbitraj jarayonida AI qo‘llanilishining chegaralariga e’tibor qaratilgan [7].

Mazkur hujjatning muhim afzalligi arbitraj jarayonida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishni tartibga soluvchi namunaviy protsessual buyruqni ham nazarda tutishidir.

Yevropa Ittifoqining Regulation (EU) 2024/1689-son Sun’iy intellekt to‘g‘risidagi reglamenti esa masalaga xavfga asoslangan yondashuvni shakllantiradi [8].

Xususan, ushbu reglamentning III-ilovasi 8(a)-bandi doirasida sud hokimiyati faoliyatida va nizolarni muqobil hal etishda faktlar hamda huquqni tahlil qilish yoki qo‘llashga ko‘maklashuvchi ayrim sun’iy intellekt tizimlari yuqori xavfli tizimlar doirasida ko‘rib chiqiladi.

Biroq har qanday yordamchi AI vositasi avtomatik ravishda yuqori xavfli hisoblanmaydi. Bunda tizimning vazifasi, qaror natijasiga ta’siri va reglamentda belgilangan istisnolar ham ahamiyatga ega.

Xorijiy yondashuvlarni umumlashtirganda, sun’iy intellektdan foydalanishning protsessual ta’siri qanchalik yuqori bo‘lsa, unga nisbatan oshkoralik, nazorat va tekshirish talablari ham shunchalik kuchayishi kerakligi ko‘rinadi.

Mazkur konsepsiya O‘zbekiston qonunchiligini takomillashtirishda ham qo‘llanishi mumkin.

V. Sun’iy intellect ishtirokida chiqarilgan arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish masalalari

Sun’iy intellektdan foydalanish bilan bog‘liq eng muhim huquqiy xatarlardan biri arbitraj qarorlarining keyinchalik boshqa davlatlarda tan olinishi va ijro etilishi bilan bog‘liq.

1958-yilgi Nyu-York konvensiyasi xalqaro arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etishning asosiy xalqaro-huquqiy mexanizmlaridan biridir [9].

Konvensiyaning V(1)(b)-moddasiga ko‘ra, taraf arbitraj muhokamasi haqida tegishli ravishda xabardor qilinmagan yoki boshqa sabablarga ko‘ra o‘z pozitsiyasini taqdim etish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan taqdirda, qarorni tan olish va ijro etishni rad etish masalasi

yuzaga kelishi mumkin.

V(1)(d)-moddasi esa arbitraj tarkibi yoki protsedurasi taraflarning kelishuviga yoxud tegishli hollarda arbitraj joyi qonunchiligiga mos kelmagan vaziyatlarga taalluqlidir.

Sun’iy intellektdan foydalanish bilan bog‘liq quyidagi faraziy vaziyatni ko‘rib chiqish mumkin.

Xalqaro tijorat arbitrajida nizoni ko‘rib chiqayotgan arbitr generativ sun’iy intellekt tizimidan foydalanib, huquqiy tahlil va qaror loyihasini tayyorlaydi. Biroq ushbu tizim taraflar taqdim etmagan huquqiy yoki faktik ma’lumotlarni ham tahlilga kiritadi. Arbitr esa bunday ma’lumotlarga asoslangan xulosalarni mustaqil tekshirmasdan qarorga kiritadi.

Agar mazkur holat tarafning muhim dalillarga munosabat bildirish imkoniyatini cheklagan bo‘lsa, protsessual huquqlar buzilganligi haqidagi e’tiroz kelib chiqishi mumkin.

Shu bilan birga, sun’iy intellektdan foydalanishning o‘zi Nyu-York konvensiyasi bo‘yicha arbitraj qarorini ijro etishni rad etish uchun mustaqil asos hisoblanmaydi. Bunday masala aniq protsessual buzilish va tegishli konvensiyaviy asos mavjudligiga qarab baholanadi.

Demak, arbitrajda sun’iy intellektdan foydalanish nafaqat protsessual samaradorlik, balki xalqaro ijro etiluvchanlik nuqtayi nazaridan ham baholanishi zarur.

VI. O‘zbekiston qonunchiligini takomillashtirish istiqbollari

O‘zbekistonda xalqaro tijorat arbitrajining huquqiy asoslari yaratilgan bo‘lsa-da, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt bilan bog‘liq munosabatlarning ayrim jihatlari umumiy protsessual normalar orqali tartibga solinmoqda.

Amaldagi qonunchilikda elektron xabar almashish, taraflarning tengligi va arbitraj muhokamasi tartibini belgilashga oid normalar mavjud. Biroq AI vositalaridan foydalanishning oshkoraligi, algoritmik natijalarni tekshirish va maxfiy ma’lumotlarni himoya qilish masalalariga doir maxsus mexanizmlarni rivojlantirish zarur.

Shu munosabat bilan quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Birinchi taklif. Sun’iy intellektdan foydalanishning uch bosqichli xavf modelini joriy etish.

Bunda sun’iy intellekt vositalari ularning arbitraj jarayoniga ta’siriga qarab uch

guruhga ajratiladi.

Birinchi guruhga hujjatlarni qidirish, tarjima qilish va protsessual muddatlarni boshqarish kabi yordamchi texnologiyalar kiritiladi. Ushbu vositalar uchun umumiy maxfiylik va axborot xavfsizligi talablarini qo‘llash yetarli bo‘lishi mumkin.

Ikkinchi guruhga dalillarni tahlil qilish, huquqiy baholashga ta’sir etuvchi ma’lumotlarni shakllantirish va qaror loyihalarini tayyorlash kabi vositalar kiritiladi. Bunday faoliyat ustidan kuchaytirilgan inson nazorati va muhim foydalanish holatlarini oshkor etish mexanizmi belgilanishi zarur.

Uchinchi guruhga nizoning mohiyati yuzasidan inson arbitridan mustaqil yakuniy qaror chiqaradigan tizimlar kiritiladi. Bunday faoliyat amaldagi qonunchilik doirasida mustaqil arbitrlik sifatida tan olinmasligi, uning ehtimoliy joriy etilishi esa alohida qonunchilik va protsessual kafolatlarni talab qilishi lozim.

Ikkinchi taklif. “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi Qonunning 34-moddasini takomillashtirish.

Mazkur modda arbitraj muhokamasi tartibiga taalluqli ekanligini inobatga olib, unga sun’iy intellektdan foydalanish bilan bog‘liq maxsus dispozitiv qoidalarni kiritish taklif etiladi.

Xususan, quyidagi mazmundagi qo‘shimcha normani muhokamaga qo‘yish mumkin:

“Arbitraj muhokamasi davomida sun’iy intellektga asoslangan axborot texnologiyalaridan foydalanishga, basharti bu taraflarning tengligi, o‘z pozitsiyasini bayon etish huquqi, ma’lumotlarning maxfiyligi hamda arbitrning mustaqil qaror qabul qilish majburiyatiga putur yetkazmasa, yo‘l qo‘yiladi. Arbitraj sudi nizoning hal etilishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish tartibini, bunday foydalanish to‘g‘risidagi axborotni oshkor etish chegaralarini hamda taraflarning e’tiroz bildirish imkoniyatini belgilashi mumkin.”

Mazkur taklif amaldagi norma emas, balki arbitraj protsessida sun’iy intellektdan foydalanishni huquqiy jihatdan aniqlashtirishga qaratilgan mualliflik yondashuvidir.

Uchinchi taklif. Arbitraj muassasalari uchun sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha namunaviy reglament ishlab chiqish.

Mazkur reglamentda sun’iy intellektdan foydalanish maqsadi, ma’lumotlarni himoya qilish, muhim AI qo‘llanilishini oshkor etish, inson tekshiruvi, zarur hollarda texnik audit hamda taraflarning e’tiroz bildirish tartibi nazarda tutilishi kerak.

Bunda har qanday AI vositasidan foydalanishni majburiy ravishda oshkor etish emas, balki uning ish natijasiga ta’siri va protsessual ahamiyatiga mutanosib oshkoralik modelini joriy qilish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchi taklif. Elektron dalillarni tekshirishning namunaviy standartini shakllantirish.

Bunda elektron dalilning manbasi, yaxlitligi, autentifikatsiyasi, saqlash tarixi va qarshi tekshirish imkoniyati asosiy mezonlar sifatida belgilanadi.

Mazkur standart arbitraj ishtirokchilarining dalillarni taqdim etish va baholash jarayonidagi huquqiy aniqlikni oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Beshinchi taklif. Arbitraj qarorlarining ijro etiluvchanligini ta’minlashga qaratilgan kafolatlarni rivojlantirish.

Sun’iy intellekt yordamida tayyorlangan qaror loyihasi inson arbitr tomonidan mustaqil tekshirilishi, uning huquqiy asoslari baholanishi va yakuniy qaror arbitrning shaxsiy javobgarligi asosida rasmiylashtirilishi lozim.

Bu yondashuv arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan protsessual e’tirozlarni kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot xalqaro tijorat arbitrajida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish nizolarni hal etishning tashkiliy va protsessual imkoniyatlarini kengaytirishi bilan birga, yangi huquqiy muammolarni ham yuzaga keltirishini ko‘rsatadi.

Birinchidan, sun’iy intellektdan foydalanish arbitraj jarayonining huquqiy tabiatini avtomatik ravishda o‘zgartirmaydi. Bunda asosiy mezon yakuniy qaror qabul qilish vakolati kimga tegishli ekanligi va protsessual kafolatlarning saqlanishidir.

Ikkinchidan, sun’iy intellektni mustaqil arbitr sifatida tan olish masalasi amaldagi qonunchilik, arbitrning huquqiy maqomi va xalqaro ijro mexanizmlari nuqtayi nazaridan

jiddiy cheklovlarga ega. Shu sababli O‘zbekiston uchun hozirgi bosqichda inson nazoratidagi AI-yordamchi arbitraj modelini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, elektron dalillarni baholashda ularning elektron shakli emas, balki kelib chiqishi, yaxlitligi, autentifikatsiyasi va tekshirilish imkoniyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi lozim.

To‘rtinchidan, xalqaro tajriba sun’iy intellektdan foydalanishning huquqiy chegaralarini uning protsessual xavf darajasiga mutanosib belgilash zarurligini ko‘rsatadi.

Beshinchidan, O‘zbekiston Respublikasining arbitraj qonunchiligini takomillashtirishda sun’iy intellektdan foydalanishga oid protsessual qoidalarni aniqlashtirish, arbitraj muassasalari uchun namunaviy reglament ishlab chiqish va elektron dalillarni tekshirish standartlarini shakllantirish muhim yo‘nalishlar hisoblanadi.

Umuman olganda, arbitrajning kelajakdagi rivojlanishi inson ishtirokini to‘liq bartaraf etish bilan emas, balki sun’iy intellektning texnologik imkoniyatlarini arbitrning mustaqilligi, protsessual adolat va xalqaro ijro kafolatlari bilan uyg‘unlashtirish orqali ta’minlanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Katsh E., Rabinovich-Einy O. Digital Justice: Technology and the Internet of Disputes. Oxford University Press, 2017.

2. Kaufmann-Kohler G., Schultz T. Online Dispute Resolution: Challenges for Contemporary Justice. Kluwer Law International, 2004.

3. Scherer M. Artificial Intelligence and Legal Decision-Making: The Wide Open? // Journal of International Arbitration. 2019. Vol. 36(5). P. 539–573.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi Qonuni. 2021-yil 16-fevral, O‘RQ-674-son. https://lex.uz/uz/acts/-5294106

5. Kasap G. H. Can Artificial Intelligence (“AI”) Replace Human Arbitrators? Technological Concerns and Legal Implications // Journal of Dispute Resolution. 2021. No. 2. P. 209–254.

6. Silicon Valley Arbitration & Mediation Center. Guidelines on the Use of Artificial Intelligence in Arbitration. First Edition, 2024. https://svamc.org/

7. Chartered Institute of Arbitrators. Guideline on the Use of AI in Arbitration. 2025. https://www.ciarb.org/

8. Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council laying down harmonised rules on artificial intelligence. https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2024/1689/oj

9. Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards. New York, 10 June 1958. https://uncitral.un.org/

10. Horton D. Forced Robot Arbitration // Cornell Law Review. 2024. Vol. 109.

11. Stefer D., Fricke V. From Algorithms to Awards: Exploring the Technological and Legal Boundaries of AI’s Contributions to the Work of Arbitrators // Arbitration International. 2025. Vol. 41(1). P. 49–70.

12. Moreira J. I., Zhang J. ChatGPT as a Fourth Arbitrator? The Ethics and Risks of Using Large Language Models in Arbitration // Arbitration International. 2025. Vol. 41(1). P. 71–84.

13. UNCITRAL. Technical Notes on Online Dispute Resolution. United Nations, 2016.

14. International Chamber of Commerce. Leveraging Technology for Fair, Effective and Efficient International Arbitration Proceedings. ICC Commission Report, 2022.

15. ICCA–NYC Bar–CPR. Protocol on Cybersecurity in International Arbitration. 2022 Edition.